

Bahor kelar uni so'roqlab

“SXTE va B” fakulteti Xotin-qizlar kengashi tomonidan 1-mart kuni O‘zbek xalqining sevimli shoirasi taniqli jamoat arbobi xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova tavalludining 104 yilligiga bag‘ishlab “Muhabbat va hayot kuychisi” mavzusida mushoira kechasi bo‘lib o‘tdi. Mushoira kechasida “Dugonalar” jurnalini bosh muharriri Guljamol Asqarova va havaskor shoirlarimiz qatnashdilar. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi huzuridagi Iktidorli bolalar Akademik Litseyi o‘quvchisi Laminova Tursunoy milliy cholg‘u anjomlarimiz dutorda ijro etilgan kuy - qo‘shiqlari mushoira kechamizga o‘zgacha shukuh bag‘ishlab talaba qizlarimiz tomonidan she‘r va qo‘shiqlar bilan uyg‘unlashib ketdi. Mushoira kecha so‘ngida mehmonlarimiz dekanatimiz va xotin- qizlar kengashi tomonidan tayyorlangan sovg‘alar bilan taqdirlandilar. Mushoira kechasi juda qizg‘in ko‘tarinki kafiyatda o‘tdi.



“SXTE va B” fakultet dekanati va xotin - qizlar kengashi ma’lumoti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov